

“Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari”

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Filologiya vatillarni o‘qitish:
ingliz tili**

3.23-guruh talabasi Abduraimova Muxlisa

ANNOTATSIYA: Axloqiy tarbiyaning ijtimoiy hayotdagi roli, uning yutuqlari va yuzaga kelayotgan muammolar ko‘rib chiqiladi. Mazkur mavzu inson huquqlari, gender tengligi, ekologik mas‘uliyat va global fikrlash kabi zamonaviy yutuqlarni yoritadi. Shu bilan birga, an‘anaviy qadriyatlarining susayishi, individualizmning kuchayishi va texnologiyalarning axloqqa salbiy ta‘siri kabi kamchiliklar tahlil qilinadi. Misollar va real hayotiy dalillar asosida zamonaviy axloqiy tarbiyaning ijobiy va salbiy jihatlari muhokama qilinib, an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta‘kidlanadi. Mavzu hozirgi jamiyatda axloqiy me‘yorlarning ahamiyatini oshirish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari, shaxsiy erkinlik, axloqiy chegaralar.

KIRISH

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta‘minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Bu jarayonda individ axloqiy qadriyatlarni anglaydi, o‘zida axloqiy fazilatlarni shakllantiradi va axloqiy tamoyillar hamda me‘yorlar asosida yashashga o‘rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi davomida ikki muhim masalaga javob izlaydi:

1. Qanday yashamoq kerak?
2. Nima qilmoq va nima qilmaslik lozim?

Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko‘rinishidir. Tarbiya ona qornidan boshlanadi, degan gap bor. Uning asl ma‘nosi shundaki, avvalo ota-ona o‘zi axloqiy tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerak. Zero, qush ini ko‘rganini qiladi. Ota-ona oilada yuqori axloqiy namuna ko‘rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasida vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlar ko‘p yillar davomida hukmronlik qilib keldi. To‘g‘ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati hayotda katta. Lekin

axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'matdir.

Axloqiy tarbiya barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lib, bu – ma'naviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktab va oliy o'quv yurtlarida esa muallimlar o'zining ta'lim berish usullari va hattoki mayda-chuyda xatti-harakatlarigacha shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna sifatida qabul qilinishini nazardan qochirmasligi lozim.

Islom dinida axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat berilgan bo'lib, Qur'on va hadislar orqali axloqiy qadriyatlar keng yoritib berilgan.

Qur'ondagi axloqiy tarbiya

1. Yaxshi xulqning fazilati: Qur'onda insonlarga yaxshi xulq-atvor, sabr, kechirimlilik va mehribonlik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi:

“Albatta, Alloh odil bo'lishni, ezgulik qilishni va qarindoshga yaxshilik qilishni amr qiladi...”

(Nahl surasi, 90-oyat).

2. Kibr va manmanlikdan chetda bo'lish: Qur'on insonlarni kibrdan uzoq bo'lishga chaqiradi:

“Yer yuzida kibr bilan yurma! Chunki sen yerning yorig'ini tesha olmaysan va tog'lardan baland bo'lolmaysan.”

(Isro surasi, 37-oyat).

Axloqiy tarbiya bo'yicha asosiy tavsiyalar

1. Halollik va rostgo'ylik: Rost so'zlash va halol hayot kechirish axloqning asosi hisoblanadi.

2. Oila va jamiyatda hurmat: Oila a'zolariga, qo'shnilarga va atrofdagilarga nisbatan hurmat va mehribonlik ko'rsatish tavsiya qilinadi.

3. Nafsi ustidan g'alaba qozonish: Nafsni yomon xatti-harakatlardan tiyib, yaxshi fazilatlarni rivojlantirish muhimdir.

Islomda axloqiy tarbiya har bir insonning jamoat va jamiyatda baxtli hayot kechirishiga hissa qo'shadi. Shu sababli, Qur'on va sunnatga amal qilish musulmonlar uchun ustuvor axloqiy yo'nalishdir.

Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari

1. Shaxsiy erkinlik va hurmat: Insonlarning diniy e'tiqodi, kiyinish uslubi va turmush tarziga hurmat oshmoqda. Masalan, ish joylarida xodimlarning millati yoki e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquqlar kafolatlanmoqda.

2. Gender va ijtimoiy tenglik: Ayollarning rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishi odatiy holga aylanmoqda.

3. Texnologiyalardan foydalanish: Ijtimoiy tarmoqlarda ekologiyani muhofaza qilish yoki hayotiy mas’uliyatni oshirish bo‘yicha kompaniyalar keng tarqalgan.

4. Ekologik mas’uliyat: Plastik mahsulotlardan voz kechish, qayta ishlanadigan resurslardan foydalanishni targ‘ib qilish orqali ko‘plab odamlar ekologik axloqni o‘z hayotiga tatbiq etmoqda.

5. Global xabardorlik: Ijtimoiy adolat, irqiy tenglik yoki qashshoqlikka qarshi kurash bo‘yicha global kompaniyalar odamlarni birlashtiradi.

Zamonaviy axloqiy tarbiyaning kamchiliklari

1. An’anaviy qadriyatlarning yo‘qolishi: Ba’zi yoshlar oilaviy an’analarga va qadriyatlarga e’tibor bermayapti. Masalan, avval ota-onalarga hurmat yuqori darajada bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ba’zi joylarda bu zaiflashmoqda.

Foydalanilganadabiyotlar:

1.Tojiboyev N. "Zamonaviy jamiyatda axloq va ma'naviyat "Nashriyot :Ma'rifat jurnali,2019

2.Sobirov A. "Axloqiy tarbiya: nazariya va amaliyot "Nashriyot: Toshkent, Ma'naviyat, 2020.

3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.O'zbekiston.1992

4.Karimov.I.A. Barkam avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydeviri. T.,Sharq Nashriyot -matbaa konserni.1998

Research Science and
Innovation House

